

*Safarova Hamrooy Qahramon qizi**Guliston davlat pedagogika instituti 3-bosqich talabasi**safarovahamrooy@gmail.com***ABDULLA QAHHORNING “BEMOR” HIKOYASINING LINGVISTIK TAHLILI**

Annotatsiya: Adabiyot va til o'rtasida chambarchas bog'liqlik mavjud. Til adabiyotning asosiy vositasi, adabiyot esa tilning badiiy ifoda shakli hisoblanadi. Bu ikki tushuncha bir-birini to'ldiradi va rivojlantiradi. Adabiyotda tilning badiiy jihatdan boyligi, obrazli ifodalar, metaforalar, frazemalar, lingvistik birikmalar, epitetlar kabi badiiy usullar qo'llaniladi. Ushbu maqolada ham Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasi ustida olib borilgan lingvistik tahlillar natijasida til va adabiyotning o'zaro uyg'unligi, qahramonlar nutqida qo'llanilgan lingvistik birikmalarning ifodalanishi, strukturasi haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Adabiyot, til, frazema, obraz, nutq, lingvistika, obrazli ifoda, epitet, fuqaro.

Аннотация: Между литературой и языком существует тесная связь. В то время как язык является основным средством литературы, литература-это форма художественного выражения языка. Эти две концепции дополняют и развивают друг друга. В литературе используются такие художественные приемы, как художественное богатство языка, образные выражения, метафоры, фразеологизмы, языковые сочетания, эпитеты. В этой статье также приводятся данные лингвистического анализа, проведенного по рассказу Абдуллы каххора “пациент”, о взаимовлиянии языка и литературы, выражении, структуре языковых сочетаний, используемых в речи героев.

Ключевые слова: литература, язык, фраза, образ, речь, языковое сочетание, образное выражение, эпитет, гражданин.

Abstract: There is a close connection between literature and language. While language is the main medium of literature, literature is a form of artistic expression of language. These two concepts complement and develop each other. In literature, such artistic techniques are used as the artistic richness of language, figurative expressions, metaphors, phraseological units, linguistic combinations, epithets. This article also provides data from a linguistic analysis based on Abdullah Kahhor's short story “The patient,” about the interaction of language and literature, the expression, and the structure of language combinations used in the characters' speech.

Keywords: literature, language, phrase, image, speech, linguistic, figurative expression, epithet, citizen.

Til – bu insonlar o'rtasida muloqot qilish, fikr almashish va ma'lumotlarni saqlashning asosiy vositasi. Til orqali insonlar o'z his-tuyg'ularini, bilimlarini va tajribalarini keyingi avlodlarga yetkazishadi. Til shuningdek, milliy madaniyat, an'analar va qadriyatlarni saqlab qolishda muhim rol o'ynaydi. Adabiyot va til esa insoniyatning madaniy, ijtimoiy va ruhiy rivojlanishida muhim omillardir. Ular orqali insonlar o'z fikrlari, his-tuyg'ulari va tajribalarini ifodalaydilar, shuningdek, milliy va universal qadriyatlarni saqlab qolishadi. Adabiyot va tilning o'zaro bog'liqligi ularning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Badiiy asarlarda lingvistik birliklarning qo'llanilishi adabiyotshunoslik va tilshunoslikning muhim masalalaridan biridir. Lingvistik birliklar – bu tilning o'ziga xos elementlari bo'lib, ular orqali muallif o'z asarida ma'no, uslub va badiiy tasvirni yaratadi. Bu birliklar so'z, ibora, gap, sintaktik konstruksiya, fonetik jihatlar va boshqalarni o'z ichiga oladi. Badiiy asarlarda lingvistik birliklarning qo'llanilishi muallifning badiiy maqsadiga erishish, obrazlar yaratish va o'quvchiga chuqur ta'sir ko'rsatish uchun muhimdir. So'z, ibora, gap, fonetik va semantik vositalar, shuningdek, stilistik usullar orqali asarning badiiyligi va ma'nosi boyitiladi. Har bir lingvistik birlik asarning umumiy badiiy tuzilishida o'ziga xos rol o'ynaydi. Shu jumladan, “Bemor” hikoyasi – bu o'zbek adabiyotining eng yorqin namunalaridan biri bo'lib, unda insonlarning ichki dunyosi, ijtimoiy muammolar va hayotiy haqiqatlar chuqur tasvirlangan. Hikoyaning lingvistik tahlili uning badiiy jihatlarini, tilning o'ziga xos xususiyatlarini va muallifning uslubiy qarashlarini tushunishga yordam beradi. Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasi – bu nafaqat badiiy jihatdan, balki lingvistik jihatdan ham boy asardir. Hikoyada qo'llanilgan leksik, sintaktik, fonetik va stilistik vositalar uning badiiyligini oshiradi va o'quvchiga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Bu hikoyada bemor bir odamning ichki kechinmalari va uning atrofidagi odamlar bilan munosabati o'z ifodasini topgan. Lingvistik tahlil orqali asarning til xususiyatlari, uslubi va badiiy vositalarini yanada oshirib bergan. Abdulla Qahhorning tilga nisbatan nozik munosabati va xalq tilidan foydalanish uslubi hikoyani o'zbek adabiyotining yorqin namunalaridan biriga aylantiradi. “Abdulla Qahhor ijodi namunalari xalqqa hamdardligi ohanglari bilan ham ajralib turadi. Uning asarlarida aholi dardi tabiiy tarzda ufurib turadi. U o'z asarlarida bayon qilgan vaziyatlar bir qarashda odamzot dilini xiralashtiruvchi bo'lib tuyulsa-da, u umidsizlik yoki kinizmni targ'ib etmaydi. Aksincha, u inson ruhiyatining kuchi va chidamliligini, shu bilan birga, qiyinchiliklarga duch kelganda shaxslarning ma'no va maqsadni topish qobiliyati qay darajada yuksalishi mumkinligini namoyish etadi. “Bemor” hikoyasi o'zining adabiy salohiyati, insoniyatning cheklangan va bepoyon imkoniyatlarini erkin yoritganligi bilan keng maqtoqlar va olqishlarga sazovor bo'ldi. Tanqidchilarning ta'kidlashicha, hikoyada ijtimoiy va iqtisodiy omillarning shaxslar hayotini shakllantirishdagi o'rni, qashshoqlik va tengsizlik masalalari yetuk bir ijodkor tomonidan qalam kuchining noyob qirralarida tasvirlab berilgan.”¹ Yozuvchilar iboralardan foydalana olishi ularning asarlarini yanada jozibador va ta'sirli qilish uchun poydevor vazifasini o'tashini ko'rsatib berishadi. Iboralar tilning boyligini namoyish etadi va o'quvchilarga ma'lum bir mavzu yoki g'oya haqida chuqurroq tushuncha beradi. Iboralar yordamida yozuvchilar hikoya qilish uslubini boyitishlari mumkin. Bu o'quvchilarni asarga jalb qilish va ularning diqqatini saqlashga yordam beradi. Abdulla Qahhor ham har bir hikoyasida iboralardan o'rinli qo'llay olishi, hikoya mazmuni ochiqroq tarzda yetkazib berishi bilan ajralib turadi. Quyida bir qancha iboralar bilan boyitilgan hikoya tahlilini ko'rib chiqamiz.

“Sotiboldi xo'jayinining oldiga arzga bordi, ammo bu borishdan muddaosi nima ekanini aniq bilmas edi. Abdug'aniboy uning so'zini eshitib ko'p afsuslandi, qo'lidan kelsa hozir uning xotinini oyoqqa bostirib berishga tayyor ekanini bildirdi”². Parchadagi oyoqqa bostirmoq iborasi Shavkat Rahmatullayevning O'zbek tili frazeologizmlar lug'atida davolab yurgizib yubormoq³ tuzalishiga yordam bermoq ma'nolarini ifodalaydi. “Bir kechasi bemor juda azob tortdi”. Azob

¹ Maxmudova Nargiza Abdulla Qahhor va uning “Bemor” hikoyasi haqida, Международный научный журнал № 11 (100), часть 1 «Научный импульс» июня, 2023

² Abdulla Qahhor Bemor hikoyasi 1936

³ Shavkat Rahmatullayev O'zbek tilining frazeologik lug'ati O, Toshkent-1978, B.89

bermoq yoki azob tortmoq – ruhan yoki jismonan qiynalmoq⁴ ma'nosini ifodalaydi. Yozuvchi ushbu lingvistik birlikni qo'llashi orqali badiiy-emotsional jihatdan ta'sirchanlik doirasini oshirib, o'quvchini ham qahramon bilan bir muhitda yashatadi.

“Bemorning oldidan jilmaslik va shu bilan birga tirikchilik uchun xonaki bir kasb qilishga majbur bo'ldi”. Kasb qilmoq iborasi Shavkat Rahmatullayevning O'zbek tili frazeologizlar lug'atida biror ish, mashg'ulotni odat qilmoq, doimiy mashg'ulotga aylantirmoq⁵ singari ma'nolarni izohlab keladi. Abdulla Qahhor o'z asarlarida xalq tiliga xos so'zlar va iboralardan keng foydalanadi. Bu hikoyani hayotiyashtiradi. “U har ingraganda Sotiboldi burov solingan kishiday talvasaga tushar edi”. Bu yerdagi lingvistik birlik talvasaga tushmoq, lug'aviy ma'nosi qo'rqmoq, O'zbek tili frazeologizmlar lug'atida esa shoshilmoq⁶ varianti berilgan. “Ko'ngliga armon bo'lmasin” deb “chilyosin” ham qildirishga to'g'ri keldi. Ko'nglida armon bo'lmoq – orzusi ushalmalik. O'zbek tili frazeologizmlar lug'atida istagan narsasiga erisholmaslik oqibatida paydo bo'lgan tuyg'u ma'nosini izohlab keladi⁷. Abdulla Qahhor hikoyalarini ta'sirchan, bir jumla bilan ko'zlanilayotgan g'oyasi aslida nima ekanligini, qanday yozilgan bo'lsa, shunday o'qilishi, tushunilishi uchun ham lingvistik birliklar orqali qisqa va lo'nda qilib ifodalaydi.

“Bemor” hikoyasida faqatgina frazemalar emas, balki obrazlar nutqini mazmundor qilish uchun boshqa lingvistik tuzilmalardan – maqol, matallardan ham foydalanilgan. Abdulla Qahhor deyarli har bir hikoyasi boshida epigraf qo'llaydi. Epigraf nima va nima uchun yozuvchi hikoyalarida epigraflar ko'p qo'llanilgan? “Epigraf adabiy asar yoki uning biror qismi (bobi)ning tepasiga yozib qo'yilgan va shu asar yoki qism (bob) mazmunini ifodalaydigan, asosiy yo'nalishini belgilab beradigan teran ma'noli ibora, maqol, matal, hikmatli so'z, qo'shiq, she'r yoki o'zga bir manbadan olingan parcha”⁸ bo'lib hikoya mazmunini butun bir jumlagi jamlash uchun qo'llaniladi. Epigraf asarning umumiy atmosferasini yaratish, o'quvchini asarning mohiyatiga tayyorlash yoki muallifning fikrlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Yozuvchi epigraf qo'llash orqali o'zining asosiy fikrlarini yanada kuchli va ta'sirli tarzda ifodalashi mumkin.

“Bemor” hikoyasi epigrafida Qahhor uslubiga xos bo'lgan qisqa va lo'nda “Osmon yiroq, yer qattiq” maqoli qo'llanadi. Bunda osmon va yer o'zaro qarama-qarshi tushunchalar bo'lib, kambag'al va omi kishining vaziyatdan chiqib keta olmasligi, hech qanday imkoni yo'qligini ta'riflaydi.⁹ Ushbu hikoyada bemorga qarashga mablag'i bo'lmagan turmush o'rtog'ining holatiga nisbatan “Bunday paytlarda yo'g'on cho'ziladi, ingichka uziladi” maqolidan foydalanilgan. Yo'g'on va ingichka o'zaro zid ma'noda ishlatilib, bosh qahramon misolida mablag'i bor odam vaziyatdan chiqa oladi, qashshoq esa uziladi, ya'ni vaziyatning qurboni bo'ladi, degan natijani izohlashga xizmat qiladi. Yana shuni aytishimiz mumkinki, Qahhor hikoyalarida dialoglar muhim o'rin tutib, personajlar tilining tabiiyligi va hayotiyiligi ularning xarakterini va ijtimoiy mavqeyini aks ettiradi. Dialoglar orqali qahramonlarning psixologik holati, ularning munosabatlari va konfliktlari ochib beriladi. Bu esa hikoyalarga dinamika va

⁴ Shavkat Rahmatullayev O'zbek tilining frazeologik lug'ati A, Toshkent-1978, B.19

⁵ Shavkat Rahmatullayev O'zbek tilining frazeologik lug'ati K, Toshkent-1978, B.128

⁶ Shavkat Rahmatullayev O'zbek tilining frazeologik lug'ati T, Toshkent-1978, B.247

⁷ Shavkat Rahmatullayev O'zbek tilining frazeologik lug'ati K, Toshkent-1978, B.150

⁸ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi “E harfi” Toshkent “Davlat ilmiy nashriyoti” – 2000

⁹ Abdullayeva Nozima, “Abdulla Qahhor hikoyalarida maqol va matallarning qo'llanishi”- Oriental Renaissance:

hayotiylik bag'ishlaydi. Dialoglar jarayonida qo'llanilgan birliklar ham Abdulla Qahhor so'z qo'llash mahoratining yuqori saviyada ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbekning atoqli va zabardast yozuvchisi, o'tkir qalam sohibi Abdulla Qahhor hikoyalarida qahramonlarning ichki dunyosini tasvirlashga alohida e'tibor berilgan. Uning asarlarida odamlarning his-tuyg'ulari, qayg'u va quvonchlari, shubha va qarama-qarshiliklari chuqur va nozik tarzda ifodalanadi. Bu esa o'quvchini qahramonlar bilan yaqinlashtiradi va ularning hayotiy tajribalarini his qilishiga yordam beradi. O'tkir so'z ustasi hikoyalarida o'zbek tilining boyligi va badiiy ifoda vositalaridan mohirlik bilan foydalanadi. Uning asarlarida so'z tanlash, iboralarning nozikligi va obrazlarning yorqinligi diqqatga sazovordir. Abdulla Qahhor hikoyalarida tilning badiiy ifodaviyligi, dialoglarning jonliligi, psixologik tasvirning chuqurligi va ijtimoiy-madaniy kontekstning aks etishi asarlarning badiiy qimmatini oshiradi. Uning hikoyalari o'zbek tilining boyligi va nozikligini namoyish etadi, shu bilan birga o'quvchilarni insoniy his-tuyg'ular va ijtimoiy munosabatlar haqida chuqur tafakkurga chorlaydi. Abdulla Qahhorning asarlari badiiy adabiyotimizning nodir namunalari bo'lishi bilan birga, tilshunosligimiz uchun ham boy manba hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva Nozima, "Abdulla Qahhor hikoyalarida maqol va matallarning qo'llanishi"- Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 11 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7
2. Abdulla Qahhor "Bemor" hikoyasi, Toshkent Yangi asr avlodi 1936
3. B.Jo'rayeva, O'zbek xalq maqollarining lingvistik asoslari. Toshkent, Akademnashr, 2019.
4. Maxmudova Nargiza Abdulla Qahhor va uning "Bemor" hikoyasi haqida, Международный научный журнал № 11 (100), часть 1 «Научный импульс» июня, 2023
5. Shavkat Rahmatullayev O'zbek tilining frazeologik lug'ati, Toshkent, "O'qituvchi"- 1978
6. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi "E harfi" Toshkent "Davlat ilmiy nashriyoti" – 2000